

**MAVZU: ONALAR VA BOLALAR SOG'LIGINI MUXOFAZA
QILISH**

Ergasheva Muxlisaxon Sirojiddin qizi

Bo'ston Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi

Jamiyat sog'lig'ni saqlash va tibbiyot statistikasi o'qituvchisi

Sog'lom ona va bola haqida Prezidentimiz bunday deydilar: “Qizlarimiz timsolida biz avvalambor bo'lg'usi onalarni, xalqimiz, millatimizning umidi va tayanchi hisoblangan kelajak avlodni dunyoga keltirib, voyaga yetkazadigan naslimiz davomchilarini ko'ramiz. Qiz bola sog'lom va baxtli bo'lsa, u quradigan oila ham, uning mevasi bo'lmish bola ham sog'lom va baxtli bo'ladi. Oila sog'lom va baxtli bo'lsa, butun jamiyat baxtli va farovon bo'ladi. Buni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur”.



Mamlakatimizda aholining reproductiv salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol

avlodni voyaga yetkazish sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh mezoniga aylandi.

Onalar va bolalar muhofazasi – onalar va bolalar salomatligini saqlash va mustahkamlash, sog'lom, jismonan va aqlan barkamol bolalarni tarbiyalashga karatilgan davlat va ijtimoiy-tibbiy tadbirlar tizimi. O'zbekiston Respublikasida bu tizim ayollar, homiladorlar va emizikli onalar mehnatini muhofaza qilish krunchiligi, onalar va bolalarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, shuningdek, akusherlik-ginekologiya va pediatriya yordamini ko'rsatadigan maxsus davolash-profilaktika muassasalari tarmoklarini yaratishga asoslangan. Mamlakat mustaqillikka erishganidan so'ng Onalar va bolalarni muhofaza qilishga qaratilgan keng kamrovli chora tadbirlar ko'zda tutilgan dasturlar ishlab chiqilgan. 1998-yildan Toshkentda „Oila“ ilmiy-amaliy markazi faoliyat ko'rsata boshladi; bu markazda O'zbekistonda oilani shakllantirish va demografik rivojlantirishga oid muammolar yuzasidan ilmiy tadqiqot ishlari olib boriladi.

Davlat tomonidan yosh bolali onalar ish soatlari cheklanadi, ularga to'liqsiz ish kuni, to'liqsiz ish haftasi, shuningdek, zaruriyatdan kelib chiqib o'zlariga qulay soatlarda yoki uyda ishlash imkoniyatlari beriladi. Har bir ona va bola sog'lig'ini kuzatish, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish ham davlat zimmasida. Sog'lom avlodni tarbiyalash maqsadida davlat organlari, tashkilotlari va muassasalari tomonidan maktabgacha ta'lim, maktab, internat maktab, bolalarni sog'lomlashtirish komplekslari kabi xilma-xil tarmokdar rivojlantirilmoqda.



Onalar va bolalarni muhofaza qilish 2 asosiy bo‘limni: akusherlik-ginekologiya (tug‘ishga yordam berish) va bolalarga davolash-profilaktika yordami ko‘rsatishni tashkil qilishni o‘z ichiga oladi. Akusherlik-ginekologiya yordamini maxsus muassasalar, xususan, shaharda tug‘ruqxonalar, shuningdek, tarkibida ayollar maslahatxonasi bo‘lgan tufuqxona komplekslari, kasalxonalarining akusherlik-ginekologiya bo‘limlari, akusherlik va ginekologiya ilmiy tadqiqot instituti, tibbiyot institutlari akusherlik-ginekologiya ka-fedrasi tarkibidagi shu soha bo‘limlari, ayollar maslahatxonasi, poliklinika va ishlab chiqarish korxonalari tibbiy-sanitariya qismi qoshidagi akusherlik-ginekologiya kabinetlari amalga oshiradi. Qishloq joylarda ayollarga akusherlik-ginekologiya yordamini viloyat, tuman kasalxonalarining tug‘ruqxona bo‘limlari, ambulatoriyasi, feldsherakusherlik punktlari va poliklinikadagi akusherlik-ginekologiya kabinetlari ko‘rsatadi.

Ayollar maslahatxonasi o‘z hududidagi poliklinika, homiladorlarni sog‘lomlashtirish muassasalari, „Ona va bola skrining“ markazi va perinatal markazlar, tibbiy-genetik, shuningdek, „Nikoh va oila“ maslahatxonalari, oilaviy va bolalar poliklinikalari, ko‘p tarmokli kasalxonalarining ixtisoslashtirilgan bo‘limlari bilan uzviy bog‘liq holda faoliyat ko‘rsatadi.



Onalar va bolalar tizimida davolash-profilaktika yordamining bir nechta bosqichlari mavjud:

1-bosqich – yoshlarni jinsiy masalalarga tayyorlash, sog‘lom oila qurish, jinsiy hayot genetikasi va jinsiy yo‘l orqali yuqadigan ka-salliklardan boxabar etish bo‘yicha yuqori malakali tibbiy yordam ko‘rsatishni „Oila va nikoh“ ilmiy maslahatxonalarini amalga oshiradi.

2-bosqich – homilani antinatal muhofazalash kompleks chora-tadbirlarini amalga oshirish ayollar maslahatxonasi, tug‘-ruqxona komplekslari va boshqa faoliyatiga kiradi.

3-bosqich – tug‘ishni bekamu-ko‘st olib borish uchun homilani institutranatal muxrfazalash – bu tug‘ruqxonalarning zimmasiga yuklatilgan.

4-bosqich – yangi tug‘ilgan chaqaloq sog‘lig‘ini himoya etish, uni emizish, umumiy holati, fiziologik rivojlanishini nazorat qilish va boshqa tug‘ruqxonalarning chaqalokdar bo‘limida ko‘zdan kechirib boriladi.

5-bosqich – maktabgacha yoshdagi bolalar sog‘lig‘ini muhofaza qilish. 6-bosqich – maktab yoshidagi bolalar sog‘lig‘i himoya qilish. Bularning hammasi O‘zbekiston Respublikasi da yo‘lga qo‘yilgan yagona O. va boshqam. tizimida bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan Akusherlik va ginekologiya instituti, Pediatriya ilmiy tadqiqot instituti, „Ona va bola“ kasalxonasi va markazlari, shuningdek, shu sohaga oid qator davolash-profilaktika muassasalarida O. va boshqam. bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib boriladi.





Sifatli tibbiy yordam va takomillashtirilgan sog'liqni saqlash tizimlari yordamida ayollar va bolalar o'iminining oldini olish mumkin. Shuning uchun ham UNICEF onalar, yangi tug'ilgan chaqaloqlar va besh yoshgacha bo'lgan bolalarning omon qolishiga oid majburiyatlarini bajarishda davom etadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlar o'limi va o'lik tug'ilishni imkon qadar tezroq kamaytirish uchun UNICEF ona-bola salomatligini muhofaza qilish sifatini yaxshilash uchun harakat qiladi.

So'nggi o'n yil ichida O'zbekistonda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish sohasida sezilarli yutuqlarga erishildi. Bugungi kunda besh yoshgacha bolalar ko'proq omon qoladi hamda homiladorlik va tug'ish paytida kamroq ayollar vafot etadi.

O'zbekistonda besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi 75 foizdan ko'proqqa kamaydi.

Tug'ruq vaqtida onalar va yangi tug'ilgan chaqaloqlar parvarishi, shuningdek, alohida kasalliklar va tadbirlarga (immunizatsiya, pnevmoniya, diareya, bezgak, sil) qaratilgan dasturlarga vertikal e'tibordan konkret kasalliklar va tibbiy tadbirlarga asoslangan har tomonlama sog'liqni saqlashni mustahkamlash yondashuvi ustivor yo'nalish bo'lib hisoblanadi.

0 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar salomatligi va rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Onalik va bolalikni muhofaza qilishning mavjud tizimlari takomillashtirilib, xizmatlardan adolatli foydalanish ta'minlanmoqda.

Ushbu dastur doirasida UNICEF homilador va emizikli ayollar, 0-28 kunlik yangi tug'ilgan chaqaloqlar va 28 kundan besh yoshgacha bo'lgan bolalar salomatligini muhofaza qilishda ko'mak beradi.

Asosiy strategik yo'nalishlar qatoriga sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, ko'p tarmoqli siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish, barqaror natijalarga erishish uchun jamoatchilikni jalb qilish kiradi.

Sog'lom ona va bola shiori har bir yurtning, millatning, xalqning asosiy tashvishlaridan biri bo'lmog'i lozim. Chunki kelajak avlod har bir davlat, yurt, el, xalqning kelajagini belgilaydigan avloddir. Ular ana shu xalq, yurt, davlat va elning umid g'unchalaridir. Bu yorug' jahonda neki jonzot bo'lsa, barchasi bolasi uchun



qayg'uradi, hatto og'zida don tashib boqadi, himoyalab voyaga yetkazadi. Butun mavjudot orasida eng ulug', eng mukarram etib yaratilgan inson farzandi, uning baxti, kelajagi uchun butun borlig'ini, kerak bo'lsa butun umrini bag'ishlaydi.

Har bir ota-ona o'z farzandining ham ruhiy-ma'naviy jihatdan sog'lom, barkamol bo'lishi uchun, ham jismoniy jihatdan chiniqqan baquvvat, turli kasallik va illatlardan sog'-salomat bo'lib ulg'ayishi uchun harakat qilmog'i lozim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.T.Nikboev "Jamiyat sog'lig'ini saqlash va tibbiyot statistikasi". Toshkent, "Ilm Ziyo", 2005 yil.
2. Irgashev Sh.B. "Valeologiya". Toshkent 2015 yil.
3. Zokirova K.O', Toxtamatova D.O' «Hamshiralik ishi asoslari». Toshkent, 2019 yil.
4. H.I.Shukurov, S.Q.Qanoatov Jamoada hamshiralik ishi, Toshkent, 2010 yil.
5. Inomov K.S. «Hamshiralik ishi asoslari». Toshkent, O'zbekiston milliy nashriyoti, 2007 yil.